INFRATUZILMA TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARI

Salayeva L.U.
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Biznes va boshqaruv” kafedrasi o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17287605

Annotatsiya*. Ushbu maqolada infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari va ularni amalga oshirishning tashkiliy mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari imkoniyatlaridan foydalanish yuzasidan xulosa va takliflar berilgan.*

Аннотация. *В статье рассматривается необходимость развития инфраструктурных сетей, их существующие возможности, особенности и организационные механизмы их реализации. Также даны выводы и предложения по использованию возможностей организационных механизмов для развития инфраструктурных сетей.*

Abstract. *This article discusses the need for the development of infrastructure networks, their existing capabilities, specific features and organizational mechanisms for their implementation. It also provides conclusions and suggestions on using the opportunities of organizational mechanisms for the development of infrastructure networks.*

Kalit so‘zlar. *Infratuzilma, infratuzilma tarmoqlari, mexanizm, tashkiliy mexanizm, davlat-xususiy sheriklik, innovatsiya.*

Ключевые слова: *Инфраструктура, инфраструктурные сети, механизм, организационный механизм, государственно-частное партнерство, инновации.*

Key words. *Infrastructure, infrastructure networks, mechanism, organizational mechanism, public-private partnership, innovation.*

Kirish. Ma’lumki, infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi, hududiy muvozanatning ta’minlanishi va aholining turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon samaradorligi birinchi navbatda aniq tashkiliy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Buning uchun davlat boshqaruvi va strategik rejalashtirish lozim bo‘ladi. Shunga asosan, milliy va hududiy dasturlar orqali transport, energetika, kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yo‘nalishlari belgilab beriladi. Shu bilan birga, moliyalashtirish mexanizmlari, ya’ni davlat budjeti, xalqaro moliya institutlari kredit va grantlari, shuningdek davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihalari orqali ta’minlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish va uning tashkiliy mexanizmlarini tadqiq qilish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Bu boradagi tadqiqotlarga asosan, infratuzilma rivojlanishi materiallar, ehtiyot qismlar va tayyor mahsulotlarni sotib olish, yetkazib berish, tashish va saqlash jarayonida moddiy oqimlarni yaxshiroq va samaraliroq boshqarishga imkon beradi, xarajatlarni optimallashtiradi va ishlab chiqarish jarayonini, sotish va tegishli xizmatlarni tartibga soladi [1]. Ushbu infratuzilma innovatsion faoliyat sohasi taraqqiyotini

belgilaydi. Bu boradagi tadqiqotlarga ko‘ra, innovatsion faoliyat infratuzilmasi faoliyatidagi yana bir muhim muammolar guruhi innovatsion faoliyatni marketing jihatidan qo‘llab-quvvatlash bo‘g‘inlarining yaxshi rivojlanmaganligi bilan asoslanadi [2]. Bu boradagi tadqiqotlar hududning innovatsion jozibadorligini oshirishga qaratiladi. Ya’ni, hudud innovatsion jozibadorligini oshirish, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni jadallashtirish, innovatsion tizimni rivojlantirish zaruriy sharti bo‘lib xizmat qiladi [3].

Boshqa tadqiqotlarga asosan, innovatsion yo‘nalishlar qishloq xo‘jaligi sohasisha ham xos bo‘ladi. Ya’ni, unga asosan, kichik qishloq xo‘jaligining rivojlangan infratuzilmasi agrosanoat majmuasi kichik korxonalari ishlab chiqarishining innovatsion rivojlanishini ta’minlaydi hamda qishloq joylaridagi ijtimoiy muammolarini hal qiladi va qishloq aholisini ish bilan ta’minlaydi [4]. Shuningdek, infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish har bir tadqiqotlar sifatida amalga oshirilgan tarmoq miqyosiga to‘g‘ri keladi. Xususan, bugungi kungacha tarmoq infratuzilmasini qurishning iqtisodiy foydalari bo‘yicha katta tadqiqotlar o‘tkazilgan [5].

Tahlil va natijalar. Olib borilgan tahlillarga asosan, tashkiliy mexanizmlarning muhim yo‘nalishi institutsional asoslarni mustahkamlash va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hisoblanadi. Bu esa loyihalarni huquqiy jihatdan himoya qilish, texnik standartlar va xavfsizlik qoidalarini joriy etish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar infratuzilma tarmoqlarining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Jarayonning yana bir muhim jihati jamoatchilik ishtirokini ta’minlash va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilishga qaratiladi. Bu infratuzilma ob’ektlari ochiqligi, shaffofligi hamda aholi ehtiyojlariga mos holda tashkil etilishini kafolatlaydi. Shuningdek, hududiy uyg‘unlik va mintaqaviy hamkorlik infratuzilma tarmoqlarini barqaror va izchil rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari davlatning strategik yo‘nalishlari, moliyalashtirish usullari, davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlari, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va jamoatchilik ishtirokini o‘z ichiga olgan kompleks tizimdan iborat bo‘ladi. Shu jihatdan olganda, zamonaviy tashkiliy mexanizmlardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholi farovonligini ta’minlash va global raqobatbardoshlikka erishishda hal qiluvchi omil bo‘lib hisoblanadi.

1-jadval

Infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari

№	Tashkiliy mexanizmlar	Asosiy yo‘nalishlar va mazmun
1	**Davlat boshqaruvi va strategik rejalashtirish**	Milliy va hududiy dasturlar, infratuzilma strategiyalari va hududiy disbalanslarni bartaraf etish
2	**Moliyalashtirish mexanizmlari**	Davlat budjeti, xalqaro moliya institutlari, grantlar, investitsiyalar va soliq imtiyozlari
3	**Davlat-xususiy sheriklik**	BOT, DBFO modellari, xususiy sektor ishtirokini ta’minlash va risklarni taqsimlash
4	**Institutsional asoslar**	Vazirlik va agentliklar o‘rtasida muvofiqlashtirish, kadrlar tayyorlash va huquqiy baza
5	**Innovatsiya va raqamli texnologiyalar**	“Smart infratuzilma”, raqamli monitoring hamda ekologik va energiya tejamkor texnologiyalar

6	**Ijtimoiy ishtirok va jamoatchilik nazorati**	Fuqarolik jamiyati va NNTlar ishtirokini ta’minlash hamda shaffoflik va ochiqlik
7	**Hududiy uyg‘unlik va mintaqaviy hamkorlik**	Shahar-qishloq infratuzilmasini uyg‘un rivojlantirish hamda chegaradosh hududlarda hamkorlik

Darhaqiqat, infratuzilma tarmoqlari (transport, energetika, kommunikatsiya, ijtimoiy soha va boshqalar) mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, hududiy muvozanat va aholining turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ularni samarali tashkil etish va rivojlantirish muayyan quyidagi tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlarga ajratiladi:

1) Davlat boshqaruv:

- milliy va hududiy darajada infratuzilma holatini tadqiq qilish;
- dolzarb dasturlar (transport logistikasini rivojlantirish, raqamli infratuzilma yoki elektr energiya) bo‘yicha choralarni amalga oshirish.

2) Moliyalashtirish:

- xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqalar) faoliyatini kengaytirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida yirik loyihalarni amalga oshirish;
- ijtimoiy va xususiy investitsiyalar uchun soliq va moliyaviy imtiyozlarni belgilash.

3) Davlat-xususiy sheriklik modeli:

- infratuzilmani qurish, boshqarish va xizmat ko‘rsatishda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;
- “build-operate-transfer” va “design-build-finance-operate” kabi modellardan foydalanish;
- xususiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va davlat tomonidan risklarni taqsimlash.

4) Institutsional asoslari:

- vazirlik va agentliklar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan boshqaruv tizimini qo‘llab-quvvatlash;
- mutaxassis kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot institutlari ishtirokini kuchaytirish;
- normativ-huquqiy bazani takomillashtirish (litsenziyalash, texnik standartlar va xavfsizlik qoidalari).

5) Innovatsiya va raqamli texnologiyalar:

- “smart infratuzilma” loyihalarini joriy etish (aqlli shahar va intellektual transport tizimlari);
- elektron boshqaruv va loyihalarni raqamli monitoring qilish;
- ekologik toza va energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish.

6) Ijtimoiy ishtirok va jamoatchilik nazorati:

- loyihalarni amalga oshirishda mahalliy aholi, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati ishtirokini ta’minlash;
- infratuzilma ob’ektlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash.

7) Territorial va hududiy uyg‘unlik:

- infratuzilma tarmoqlarini shahar va qishloqlar o‘rtasida mutanosib rivojlantirish;
- chegaradosh hududlarda mintaqaviy hamkorlik loyihalarini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa. Infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari davlatning strategik rejalashtirish va qonunchilik bazasi, moliyalashtirish manbalari, davlat-xususiy sheriklik modellari, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hamda jamoatchilik ishtirokini qamrab olgan ko‘p qirrali tizimdan iborat bo‘ladi. Bu tarkib zamonaviy kompyuter tarmoqlarini yaratishga imkon beradigan apparat va dasturiy ta’minot komponentlari majmuidan tarkib topadi. Korxonalar tarmoq

infratuzilmasi va u foydalanuvchilar, ilovalar va bugungi biznes jarayonlarni tashkil etuvchi qurilmalar o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydigan ulanishga bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Farmonova M.N. Sanoat korxonalarini rivojlantirishning xududiy siyosatini takomillashtirish. // Реал сектор соҳаси иктисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари (IV қисм). 2022 йил 23 апрел. - Самарқанд, СамИСИ, 2022. - 99 b.
2. Ғуломова Г.П. Инновацион фаолият инфратузилмасини шакллантириш - ишлаб чиқаришни модернизациялаш омили сифатида. // Иқтисод ва молия, 2016, 7. - 70 b.
3. Зозулич М.Ф., Хаханов С.В. Организационно-экономические механизмы развития инновационной инфраструктуры региона. // Инновации, №2 (220), 2017. - 81 b.
4. Voytyuk M.M., Marinchenko T.E., Voityuk V.A. New organizational mechanisms of infrastructure development of small agricultural businesses in Russia. // BIO Web of Conferences 42, 06001 (2022).
5. Liu Z., Ju B.. Network infrastructure construction and heterogeneous enterprise innovation quasi-natural experiment based on “Broadband China”. // Information Economics and Policy, Volume 65, December 2023, 101066